

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI



TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI SUHBAT ASOSIDA
KIRISH IMTIHONIDASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI

60610200 – Axborot xavfsizligi yo‘nalishi

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta’lim muassasalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqildi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2026-yil “___” - _____dagi ___-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

M.N.Nurmamatov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasini mudiri kafedrasini mudiri, PhD, dotsent.

Taqrizchilar:

S.A.Axatkulov

Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasini professori.

M.R.Tojiyev

Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasini dotsenti.

KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11-yanvardagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqildi.

Suhbat qaror bilan tasdiqlangan **"Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom** asosida o'tkaziladi.

1. Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

Universitet rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysinuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil universitetda saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni universitetga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, universitet tomonidan belgilangan muddatda Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay universitetda tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim.

Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

3. Baholash mezonlari

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar universitet qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

4. Apellyatsiya komissiyasi

Universitetda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida universitetda to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5. Suhbat natijalari

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda universitet rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil universitetda saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash universitet talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida universitetning budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

60610200 – Axborot xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha savollar

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligining o'rni qanday baholanadi?
3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida axborot xavfsizligiga qanday ustuvor vazifalar belgilangan?
4. Kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
5. Davlat organlarida axborot xavfsizligini ta'minlash nima uchun muhim hisoblanadi?
6. Elektron hukumat tizimlarida axborot xavfsizligi qanday ahamiyat kasb etadi?
7. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunining asosiy maqsadi nimadan iborat?
8. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun dolzarb masala hisoblanadi?
9. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari deganda nimalar tushuniladi?
10. Muhim axborot infratuzilmasini himoya qilishning davlat uchun ahamiyati nimada?
11. Davlat axborot resurslarini himoya qilishda qanday asosiy tamoyillar qo'llaniladi?
12. O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlovchi vakolatli davlat organlari qanday vazifalarni bajaradi?
13. Davlat tashkilotlarida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish nima uchun zarur?
14. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda fuqarolar axborot xavfsizligini qanday ta'minlashi kerak?
15. Kiberhujumlarning davlat boshqaruvi tizimiga qanday salbiy ta'siri bo'lishi mumkin?
16. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida axborot xavfsizligining o'rni qanday?
17. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi qanday muammolarni yuzaga keltirishi mumkin?
18. Bulutli texnologiyalardan foydalanishda qanday xavfsizlik talablariga amal qilish lozim?
19. O'zbekiston Respublikasida elektron raqamli imzo tizimining ahamiyati nimada?

20. Elektron hujjat aylanishida axborot xavfsizligi qanday ta'minlanadi?
21. Axborot xavfsizligi madaniyati deganda nima tushuniladi?
22. Tashkilotlarda axborot xavfsizligi bo'yicha xodimlarni muntazam o'qitish nima uchun muhim?
23. Axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlardan foydalanishning afzalliklari qanday?
24. ISO/IEC 27001 standartining asosiy vazifasi nimadan iborat?
25. Milliy sertifikatlashtirish tizimi axborot xavfsizligiga qanday hissa qo'shadi?
26. O'zbekistonda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda qanday choralar amalga oshirilmoqda?
27. Axborot xavfsizligini ta'minlashda huquqiy-me'yoriy hujjatlarning o'rni qanday?
28. Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanish bo'yicha fuqarolarning asosiy majburiyatlari nimalardan iborat?
29. Ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarni oshirish nima uchun zarur?
30. Yoshlarni kibertahdidlardan himoya qilish bo'yicha qanday profilaktik tadbirlar amalga oshirilishi kerak?
31. Mobil ilovalardan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy usullari qanday?
32. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nima uchun muhim?
33. Elektron tijorat tizimlarida axborot xavfsizligi qanday ta'minlanadi?
34. Bank va moliyaviy tizimlarda axborot xavfsizligining ahamiyati nimada?
35. Ransomware kabi zamonaviy kiberhujumlarning iqtisodiyotga ta'siri qanday bo'lishi mumkin?
36. Axborot xavfsizligini ta'minlashda kriptografik himoya vositalarining o'rni qanday?
37. Milliy CERT (Computer Emergency Response Team) xizmatlarining vazifalari nimalardan iborat?
38. Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro hamkorlik nima uchun muhim?
39. Axborot xavfsizligi sohasida malakali kadrlar tayyorlashning dolzarbligi nimada?
40. Axborot xavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri qanday?
41. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi bo'yicha mas'uliyati nimalardan iborat?
42. Internet orqali firibgarliklarning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish lozim?
43. Davlat va xususiy sektor hamkorligi axborot xavfsizligini rivojlantirishga qanday hissa qo'shadi?
44. O'zbekistonning xalqaro kiberxavfsizlik reytinglaridagi o'rnini yaxshilash uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
45. Axborot xavfsizligi siyosatini tashkilot miqyosida joriy etish qanday bosqichlardan iborat?
46. Kiberxavfsizlik bo'yicha favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik nima uchun muhim?
47. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar qanday?
48. Axborot xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va xavflari nimalardan iborat?
49. O'zbekistonning raqamli suverenitetini ta'minlashda axborot xavfsizligi qanday o'rin tutadi?
50. Kelajakda O'zbekistonda axborot xavfsizligi tizimini yanada takomillashtirish uchun qanday ustuvor yo'nalishlarni taklif qilgan bo'lardingiz?

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Nima sababdan aynan Axborot xavfsizligi ta'lim yo'nalishini tanladingiz?
2. Axborot xavfsizligi mutaxassisi kasbining jamiyatdagi **o'rnini** qanday baholaysiz?
3. Sizningcha, axborot xavfsizligi sohasi kelajak kasblaridan biri hisoblanadimi? Nima uchun?
4. Ushbu yo'nalishda o'qishni davom ettirishdan asosiy maqsadingiz nima?
5. Axborot xavfsizligi sohasiga qiziqishingiz qachon va qanday shakllangan?
6. Texnikumda o'qish davomida ushbu sohaga oid qanday bilim va **ko'nikmalarni** egalladingiz?
7. Kelajakda o'zingizni axborot xavfsizligining qaysi **yo'nalishida** faoliyat yuritayotganingizni tasavvur qilasiz?
8. Sizningcha, axborot xavfsizligi mutaxassisi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
9. Ushbu kasbni tanlashingizga **kim** yoki nima ta'sir ko'rsatdi?
10. Axborot xavfsizligi bo'yicha qanday kitoblar, maqolalar yoki onlayn kurslarni o'rgangansiz?
11. Kiberxavfsizlikka oid **yangiliklarni** qaysi manbalar orqali kuzatib borasiz?
12. Oliy ta'limda o'qish sizning kasbiy rivojlanishingizga qanday hissa qo'shadi deb **o'ylaysiz?**
13. Nima uchun bakalavriat bosqichida o'qishni davom ettirishni muhim deb hisoblaysiz?
14. Axborot xavfsizligi bo'yicha qanday sertifikatlarni olishni rejalashtiryapsiz?
15. Ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun qanday bilimlarni egallash zarur deb hisoblaysiz?
16. Sizningcha, axborot xavfsizligi mutaxassisining eng muhim vazifasi nimadan iborat?
17. Kelajakdagi kasbiy maqsadlaringiz qanday?
18. O'zingizni besh yildan keyin qaysi lavozimda ko'rasiz?
19. Axborot xavfsizligi sohasidagi qaysi yo'nalish sizni ko'proq qiziqtiradi va nima uchun?
20. Sizni ushbu sohada ishlashga ruhlantiradigan omillar nimalardan iborat?
21. Axborot xavfsizligi bo'yicha mustaqil ravishda qanday loyihalarni amalga oshirgansiz?
22. Texnikum davrida axborot xavfsizligi bilan bog'liq qanday amaliy mashg'ulotlarda qatnashgansiz?
23. Axborot xavfsizligi bo'yicha musobaqa, olimpiada yoki tanlovlarda ishtirok etganmisiz?
24. O'zingizning qaysi qobiliyatingiz ushbu kasbga mos deb hisoblaysiz?
25. Sizningcha, ushbu kasbning eng murakkab jihati nimada?
26. Axborot xavfsizligi sohasida ishlash qanday mas'uliyatni talab qiladi?
27. Axborot xavfsizligi mutaxassisi uchun halollik va kasbiy etikaning ahamiyati nimada?
28. Nima uchun axborot xavfsizligi mutaxassisi doimiy ravishda **o'z** ustida ishlashi kerak?
29. Sohaga oid xorijiy tillarni bilish nima uchun muhim?
30. Axborot xavfsizligi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishga qiziqasizmi? Nima uchun?
31. Universitetda o'qish davomida qanday qo'shimcha ko'nikmalarni egallashni xohlaysiz?
32. Kelajakda davlat tashkilotida ishlashni istaysizmi yoki xususiy sektorda? Sababini tushuntiring.
33. Axborot xavfsizligi mutaxassisiga bo'lgan talab kelajakda qanday o'zgaradi deb o'ylaysiz?
34. Axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish nima uchun muhim?
35. Jamoada ishlash ushbu kasb uchun nima sababdan zarur?
36. Sizningcha, axborot xavfsizligi mutaxassisi qanday muammolarni hal qiladi?

37. Kasbiy faoliyatingiz davomida qanday qadriyatlarga amal qilmoqchisiz?
38. Sizni axborot xavfsizligi yo‘nalishida ilmiy **izlanishlarga** nima **undaydi**?
39. **Universitetni** tamomlaganingizdan so‘ng qanday natijalarga erishishni maqsad qilgansiz?
40. Axborot xavfsizligi **bo‘yicha** magistratura yoki ilmiy faoliyatni davom ettirishni **rejalashtirasizmi**?
41. Sizningcha, ushbu kasb mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa **qo‘shadi**?
42. Axborot xavfsizligi **sohasida innovatsion** g‘oyalarni amalga oshirish uchun qanday imkoniyatlar **mavjud**?
43. **Sohadagi** qaysi mutaxassis yoki **olim** siz uchun namuna hisoblanadi?
44. Axborot xavfsizligi **bo‘yicha** qanday zamonaviy texnologiyalar sizni qiziqtiradi?
45. Agar murakkab kiberhodisaga duch kelsangiz, uni hal qilish uchun qanday **yondashuvni** tanlaysiz?
46. O‘qish bilan birga amaliy tajriba orttirishning ahamiyati nimada?
47. Kelajakda o‘z bilimlaringizni yosh avlodga ulashishni istaysizmi? Nima uchun?
48. Axborot xavfsizligi sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun qanday shaxsiy rivojlanish rejasiga egasiz?
49. Nima uchun aynan sizni ushbu bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga qabul qilish kerak deb hisoblaysiz?
50. Agar ushbu ta’lim yo‘nalishiga qabul qilinsangiz, universitetda o‘qish davrida o‘zingizga qanday asosiy maqsadlarni belgilaysiz?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. O‘zingizni axborot xavfsizligi mutaxassisi uchun zarur bo‘lgan qaysi shaxsiy fazilatlarga ega deb hisoblaysiz?
2. O‘qish jarayonida murakkab mavzularni qanday usullar bilan o‘zlashtirasiz?
3. Mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash uchun qanday manbalardan foydalanasiz?
4. O‘zingiz mustaqil hal qilgan texnik muammo haqida misol keltiring.
5. Amaliy mashg‘ulotlarda duch kelgan qiyinchiliklarni qanday yenggansiz?
6. Belgilangan muddatlarga rioya qilishni qanday ta’minlaysiz?
7. Bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalarni bajarishga to‘g‘ri kelganda ishlaringizni qanday rejalashtirasiz?
8. Jamoa bilan ishlashda odatda qanday rolni bajarishni afzal **ko‘rasiz**?
9. Jamoada kelib chiqqan kelishmovchiliklarni qanday hal qilasiz?
10. **O‘zingiz** qabul qilgan muhim qarorlardan biri haqida so‘zlab bering.
11. Qaror qabul qilishda nimalarga asoslanasiz?
12. Xato qilganingizni bilganingizda qanday **yo‘l** tutasiz?
13. Mas’uliyat talab qiladigan vazifani bajargan tajribangiz haqida gapirib bering.
14. **O‘zingizni** intizomli inson deb hisoblaysizmi? Misol bilan izohlang.
15. Bosim ostida ishlashga **to‘g‘ri** kelgan vaziyatni tasvirlab bering.
16. Stressli vaziyatlarda ish unumdorligingizni qanday saqlab qolasiz?
17. Texnikum davrida erishgan eng muhim yutug‘ingiz qaysi?
18. Tanlov, olimpiada yoki musobaqalarda ishtirok etganmisiz? Natijalaringiz qanday bo‘lgan?
19. **Sertifikat** yoki diplom bilan taqdirlanganmisiz? Qaysi yo‘nalishda?
20. O‘zingizni rivojlantirish uchun har kuni qanday odatlarga amal qilasiz?
21. So‘nggi bir yil ichida qanday yangi ko‘nikmalarni o‘rgandingiz?

22. Dasturlash yoki axborot xavfsizligiga oid qanday mustaqil loyihalarni bajargansiz?
23. O'zingiz yaratgan dastur, loyiha yoki ishlanma haqida ma'lumot bering.
24. Muammoni hal qilishda ijodiy yondashgan holatingizni misol qilib keltiring.
25. Tanqidni qanday qabul qilasiz va undan qanday xulosa chiqarasiz?
26. Rahbarlik qobiliyatingizni namoyon qilgan vaziyat bo'lganmi?
27. Jamoada boshqalarga yordam bergan holatingiz haqida gapirib bering.
28. Yangi texnologiyalarni **o'rganishda** qanday usullardan foydalanasiz?
29. Ingliz tilidagi texnik adabiyotlarni o'qiy olasizmi? Bu sizga qanday yordam beradi?
30. Bilimingiz yetarli **bo'lmagan** vaziyatda qanday yo'l tutasiz?
31. Axborot xavfsizligi sohasida doimiy o'qib-o'rganish nima uchun muhim?
32. **O'zingizni** kelajakda qanday mutaxassis sifatida tasavvur qilasiz?
33. Kasbiy faoliyatda halollik va maxfiylik tamoyillariga qanday munosabatdasiz?
34. Siz uchun kasbiy etikaga rioya qilish nimani anglatadi?
35. Texnik muammolarni tahlil qilishda qanday ketma-ketlikka amal qilasiz?
36. O'zingizni analitik fikrlaydigan inson deb hisoblaysizmi? Misol bilan tushuntiring.
37. Vaqtingizni samarali boshqarish uchun qanday reja tuzasiz?
38. Murakkab topshiriqni bajarishda motivatsiyangizni qanday saqlaysiz?
39. O'qish va shaxsiy hayot **o'rtasida** muvozanatni qanday ta'minlaysiz?
40. O'zingizning eng kuchli va eng zaif tomonlaringizni ayting.
41. Zaif tomonlaringizni bartaraf etish uchun qanday choralar **ko'ryapsiz**?
42. Kelajakda xalqaro sertifikatlariga ega **bo'lishni** rejalashtiryapsizmi? Qaysilariga?
43. **O'zingizni** boshqalardan ajratib turadigan qanday qobiliyatingiz bor?
44. Yangi g'oyalarni amalga oshirishda qanday tashabbuslar **ko'rsatgansiz**?
45. Kasbiy rivojlanish uchun besh yillik shaxsiy rejangiz qanday?
46. Murakkab vaziyatda tez va to'g'ri qaror qabul qilish uchun nimalarga e'tibor berasiz?
47. Siz uchun muvaffaqiyat mezoni nimadan iborat?
48. O'z ustingizda ishlayotganingizni ko'rsatadigan aniq misollarni keltiring.
49. Axborot xavfsizligi mutaxassisi sifatida jamiyat oldidagi mas'uliyatingizni qanday tushunasiz?
50. Nima sababdan sizni **60610200 – Axborot xavfsizligi** bakalavriat ta'lim yo'nalishiga munosib nomzod deb hisoblash mumkin?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. Axborot xavfsizligi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Axborot xavfsizligining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
3. Maxfiylik (Confidentiality), yaxlitlik (Integrity) va mavjudlik (Availability) tamoyillarini izohlang.
4. Axborot xavfsizligiga tahdid deganda nima tushuniladi?
5. **Zaiflik** (Vulnerability) va xavf (Risk) tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
6. Axborot aktivlari deganda nimalar tushuniladi?
7. Autentifikatsiya va avtorizatsiya tushunchalarini izohlang.
8. Ko'p bosqichli autentifikatsiya (MFA) nima va uning afzalliklari qanday?
9. Kuchli parol qanday talablarga javob berishi kerak?
10. Tarmoq xavfsizligi deganda nima tushuniladi?
11. Firewall (tarmoqlararo ekran) qanday vazifani bajaradi?
12. Antivirus dasturlarining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
13. Kompyuter virusi nima va uning asosiy turlarini sanab bering.
14. Fishing (Phishing) hujumi nima va undan qanday himoyalaniish mumkin?
15. Ransomware nima va u qanday xavf tug'diradi?

16. DDoS hujumi nima va uning oqibatlarini qanday bo'lishi mumkin?
17. Zararli dasturlar (Malware)ning asosiy turlarini sanab bering.
18. Shifrlash (Encryption) nima va nima uchun qo'llaniladi?
19. Simmetrik va assimetrik shifrlash usullarining farqini tushuntiring.
20. Elektron raqamli imzo (ERI) nima va u qanday ishlaydi?
21. Hash-funksiya nima va uning vazifasi qanday?
22. Zaxira nusxa (Backup) yaratish nima uchun muhim?
23. Operatsion tizimni muntazam yangilab borish nima uchun zarur?
24. Axborot xavfsizligida foydalanuvchi huquqlarini boshqarish nima uchun muhim?
25. Lokal tarmoq (LAN) va global tarmoq (WAN) o'rtasidagi farq nimada?
26. IP manzil nima va uning vazifasi qanday?
27. IPv4 va IPv6 manzillari o'rtasidagi asosiy farqlarni ayting.
28. DNS xizmatining vazifasi nimadan iborat?
29. VPN nima va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
30. Bulutli texnologiyalarda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy usullari qanday?
31. SQL Injection hujumi nima?
32. XSS (Cross-Site Scripting) hujumi nima?
33. Operatsion tizimlarda foydalanuvchi huquqlarini cheklash nima uchun muhim?
34. Linux va Windows operatsion tizimlarining xavfsizlik jihatidan qanday **farqlari** mavjud?
35. Tarmoq monitoringi nima va u qanday vositalar yordamida amalga oshiriladi?
36. IDS va IPS tizimlarining vazifalari qanday?
37. Kiberxavfsizlik insidenti deganda nima tushuniladi?
38. Insident sodir **bo'lganda** qanday ketma-ket harakatlar amalga oshiriladi?
39. Ijtimoiy muhandislik (Social Engineering) nima?
40. USB qurilmalaridan foydalanishda qanday xavfsizlik choralariga amal qilish kerak?
41. Wi-Fi tarmoqlarini himoyalashning asosiy usullari qanday?
42. HTTPS va HTTP protokollari **o'rtasidagi** farq nimada?
43. **SSL/TLS** sertifikatlarini qanday vazifani bajaradi?
44. Kuchli axborot xavfsizligi siyosati nimalarni o'z ichiga oladi?
45. Texnikumda axborot xavfsizligi bo'yicha qanday laboratoriya ishlarini bajargansiz?
46. Qaysi dasturlash tillari axborot xavfsizligi sohasida keng qo'llaniladi va nima uchun?
47. Axborot xavfsizligi bo'yicha qanday dasturiy vositalardan foydalangansiz?
48. O'zingiz bajargan amaliy loyiha yoki laboratoriya ishlaridan biri haqida ma'lumot bering.
49. Sizningcha, zamonaviy axborot xavfsizligi mutaxassisi qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega **bo'lishi** kerak?
50. Texnikumda olgan bilim va ko'nikmalaringiz sizni **60610200 – Axborot xavfsizligi** bakalavriat ta'lim **yo'nalishida muvaffaqiyatli** o'qishga qanday tayyorladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Nurmamatov M.Q., Hamidov M. "Kiberxavfsizlik asoslari". Darslik. 2025 yil. SamDU 272 b.
2. Abdullayev A.X., Rasulov A.A. **Axborot xavfsizligi**. Darslik / Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. – Toshkent: TATU, 2021. – 432 bet.
3. Karimov B.T., Yo'ldoshev D.A. **Kiberxavfsizlik asoslari**. O'quv qo'llanma / Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. – Toshkent: TATU, 2022. – 368 bet.

4. Tojiboyev U.T., Ismoilov A.A. **Axborot va kiberxavfsizlik texnologiyalari**. O'quv qo'llanma / Toshkent davlat transport universiteti. – Toshkent: TDTrU, 2023. – 304 bet.
5. Nishonov F.X., Rahimov M.R. **Kompyuter tarmoqlari va axborot xavfsizligi**. Darslik / Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. – Qarshi: QMII, 2022. – 412 bet.
6. Ergashev S.M., Xolmatov A.R. **Kiberxavfsizlik va axborotni himoyalash usullari**. O'quv qo'llanma / Samarqand davlat universiteti. – Samarqand: SamDU, 2024. – 286 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Tahirov B.N. **Axborot xavfsizligi asoslari**. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2022. – 156 bet.
2. Ganiyev S.K., Ganiyev A.A., Xudoyqulov Z.T. **Kiberxavfsizlik asoslari**. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 240 bet.
3. Nigmatov H., Raxmanov Q.S., Djuraeva R.B., Muhammadiev A. **Axborot xavfsizligini boshqarishga kirish**. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – 275 bet.
4. G'ulomov Sh.R., Botirov F.B., Azizova Z.I. **Hujum insidentlari va unga reaksiya**. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2021. – 216 bet.
5. Yusupov S.Yu., Ganiyev A.A., Bekmirzayev O. **Kompyuter tizimlari va tarmoqlarini buzish va himoyalash**. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2021. – 232 bet.

Internet saytlari

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal
2. UZCERT – Kiberxavfsizlik hodisalariga javob berish xizmati
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ)
4. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
5. NIST Computer Security Resource Center (CSRC)
6. OWASP Foundation
7. CISA – Cybersecurity and Infrastructure Security Agency
8. Cisco Networking Academy
9. EC-Council
10. CompTIA

BAHOLASH MEZONLARI

Kirish sinovlari yozma ish shaklida o'tkaziladi. Shundan har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbat javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21

Abituriyentning suhbat javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Tuzuvchi:

M.N.Nurmamatov

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

A.M.Xalxo'jayev

